



UDK 81.23

CHET TILLARINI O'RGATISH CHOG'IDA BADIY ADABIYOTLARNING AHAMIYATI

Xodjayev Dilshod Xamidxonovich

Namangan Davlat Universitet doktoranti

dilshod8282772@gmail.com

*Ilmiy rahbar, pedagogia fanlar nomzodi
dotsent Satarov Aleksandr Xoshimovich*

Satarov51@inbox.ru

Annotatsiya: mazkur maqola chet tillarni o'rganish jarayonida badiiy adabiyyotlarning ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. O'rganilayotgan tilning nafaqat grammatika va lug'at boyligini, balki madaniy va axloqiy qadriyatlarni ham shakllantirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Chet tilini o'rgatishda, ayniqsa, badiiy adabiyyotlarning o'quvchilarida estetik, axloqiy va ma'naviy rivojlanishga ta'siri katta. Maqolada badiiy asarlarni mutola qilish, ularni tahlil qilish va o'quvchilarini axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirishning muhimligi ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy qadriyatlari, estetik rivojlanish, linguistik kompetensiya, tarbiyaviy vazifalar, mustaqil fikrlash, zamonaviy texnologiyalar, ko'nikma.

ВАЖНОСТЬ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ.

Аннотация: данная статья посвящена анализу важности художественной литературы в процессе изучения иностранных языков. Подчеркивается, что изучаемый язык формирует не только грамматику и словарный запас, но и культурные и моральные ценности. В обучении иностранному языку особенно важно влияние художественной литературы на эстетическое, моральное и духовное развитие учащихся. В статье акцентируется внимание на важности чтения и анализа художественных произведений, а также знакомства учащихся с моральными ценностями.

Ключевые слова: моральные ценности, эстетическое развитие, лингвистическая компетенция, воспитательные задачи, самостоятельное мышление, современные технологии, навыки.

THE IMPORTANCE OF LITRARY WORKS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract: This article is dedicated to analyzing the importance of literary works in the process of learning foreign languages. It emphasizes that the language being studied shapes not only grammar and vocabulary but also cultural and moral values. In foreign language



education, the impact of literary works on the aesthetic, moral, and spiritual development of students is particularly significant. The article highlights the importance of reading and analyzing literary works, as well as introducing students to moral values.

Key words: moral values, aesthetic development, linguistic competence, educational tasks, independent thinking, modern technologies, skills.

KIRISH

Hozirgi jamiyatidagi muhim narsalardan biri bu til ko'nikmalarini puxta egallash va eganlagan ko'nikmalarni o'z o'rniда ishlata bilish. Bugungi kunda ko'plab yoshlарimiz o'z tanlagan kasbidan tashqari biron bir chet tillarini o'r ganishni maqsad qilib olishmoqda. Kasbidan qat'iy nazar chet tilini bilish zaruriy jihat bo'lib qolmoqda. Chunki dunyo globallashuv jarayonini kechirmoqda, har bir sohada chet ellik mutaxassislarni o'zaro mehnat qilayotganini ko'rish mumkin. O'zaro muloqot vositasi bo'lgan ona tilini inson oilada, tabiiy muhitda, jamoatchilik orasida yoki guruh holda, ya'ni darslarda amaliy egallashi mumkin. Nazariy jihatdan o'r ganiladigan bilimlar esa til hodisalriga oid bilimlardir. Chunki barcha boshqa amallarni inson til orqali osson o'zlashtira oladi. Kun sayin rivojlanib borayotgan xalqaro munosabtlar avj olgan zamonda xorijiy tillarni o'r ganish, ayniqsa, ko'p tillilik, aniqroq qilib aytganda, poliglossiya muhim ahamiyatga ega.

Chet tillarni o'r ganish jarayonida inson nafaqat tilni o'zini ongiga muhirlaydi balki til orqali u tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati ham istar istamas insonga singib boradi. Til bilish – yaxshi. Til bilish bu – uyg'onish. Hatto Renessans davrida ham odamlarning kamida ikki-uch tilni bilishi odatiy hol sanalgan. Ulug'larimiz "bir tilni bilgan bir odam, ikki tilni bilgan ikki odam", deya o'git berib kelganlar. Behbudiy to'rt tilni bilishni targ'ib qiladi. Lekin o'zga tilni bilish o'z ona tilingning unutish hisobiga bo'lmasligi lozim. Aks holda, o'zlikni boy berib qo'yish mumkin. Iqtisodiyotimiz, ilm-fan rivoji chet elda ta'lim yoki amaliyat olib kelayotgan yoshlарimizga bog'liqdir. Shu sababdan O'zbekiston hukumati chet tilini o'r ganish va o'r ganish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirmoqda. Buni hukumat qarorlarida ham ko'rish mumkin: "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'r ganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari tug'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi PQ-



5117-sonli qarori [1], “Xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’grisida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi 312-sonli qarori [2].

Hozirgi kunga kelib tahsil olayotgan ko’plab talabalar va o’quvchilar asosan uchta tilni o’rganmoqdalar. Ta’lim nazariyasida esa ularning o’z nomlari bilan yuritiladi. Ular: ona tili, ikkinchi til va xorijiy til.

Bilamizki, barchaning o’z ona tili aqliy tafakkur rivojlanishida asosiy o’rin tutadigan birinchi tildir. Ona tilidagi so’zlar orqali o’rganilgan muayyan tushunchalar ikkinchi yoki xorijiy tilni o’zlashtirish jarayonida o’zga tildagi so’zlarning tovushdagi va yozuvdagi ko’rinishida namoyon bo’ladi. Ona tili, ikkinchi til va xorijiy tilda o’rganiladigan so’z (misol uchun: daraxt-дерево-tree) sanog’i jihatidan uchta, biroq ular ma’no ifodasidan anglanadigan tushuncha esa yagona: “Qaysidir ma’noda butun insoniyat va tabiat, uchun umuman olganda borliq uchun eng muhim bo’lgan o’simlik turidir”. O’quvchi, talabalar esa o’zga tilda o’rganayotgan tushunchalarni ona tilidagi so’zlar bilan mantiqan bog’laydilar. Bu mantiqiy bog’lanish o’z ona tilida bor tasavvur yoki predmet borligida osson kechadi, biroq til farq qilganidek madaniyat, yashash tarzi, tilda ifodalanovchi qadr qiymat ham farq qiladi, bunday to’siqni osson yengib o’tish uchun til o’rganuvchining oldida ikkita yo’l turadi birinchisi o’rganilayotgan tilda yozilgan adabiyotlarni ko’proq mutolaa qilish yoki o’sha jamiyatda yashab tilni o’zlashtirishdir. Afsuski hamada ham chet elga borib tilni o’rganish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli ikkinchi yo’l orqali o’quvchilarning til bilish ko’nikmalarini rivojlantirish orqali ularni chet el adabiyoti bilan tanishtiramiz. O’quvchilarga til o’rgatish bilan bir qatorda ularga ahloqiy, estetik, ekologik, iqtisodiy va boshqa tarbiyalarni berib boramiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy adabiyotlar inson tarbiyasi va uni jamiyatda munosib o’rin egallashi, hayot yo’li mazmunli o’tishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tarbiya jarayonida badiiy adabiyotlar ulkan kuchga ega bo’lib uquvhilarga katta motivatsion ruh bag’ishlaydi, o’qituvchi tomonidan berib bo’lmaydigan tarbiyaviy jihatlarni o’quvchilar ongiga singdiradi. Shu sababdan ko’plab pedagog olim va tadqiqotchilar badiiy adabiyotlarni ta’lim jarayonidagi ahamiyati tug’risida fikr bildirib o’tishgan.



Quydag'i olimlar chet tilini o'rganish bilan bir qatorda badiiy adabiyotlarni o'quvchilarni ongini rivojlantirishi haqida fikr yuritishgan E.Chambers, M.Gregory [4], Dole J. A., Duffy G. G., Roehler L. R., Pearson P. D. [3], Jessica Marinaccio [6] Olimlarning fikricha, badiiy matnni tushunish o'quvchining mutolaa maqsadiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Tompkins mutolaa muayan maqsadlarga asoslanishi zarurligini ta'kidlaydi. Maqsadsiz o'qishni boshlagan yoki badiiy asarni faqat estetik zavq olish uchungina o'qigan har qanday kitobxon matndan tez zerikib qoladi [9]. Chindan ham badiiy asar mutolaasi avvalida "nimani?", "qanday?" va "nima uchun?" kabi savollarning ko'ndalang qo'yilishi kitobxonni nafaqat asardan tez zerikishi, balki badiiy matn tahlilida o'quvchi fikrlarining hokimlik kasb etishiga, o'zi izlagan savollarga javob topishiga ham zamin yaratdi. O'quvchilarni adabiyotga qiziqtirish, badiiy asarni turli rakurslarda tushunishiga rag'bat berish, ularda plyuralistik tafakkur imkoniyatlarini kengaytirish, tahlilda o'rganuvchi faolligini ta'minlashda o'qishdan oldingi faoliyat (pre-reading activity) muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Badiiy adabiyot orqali o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini o'rganish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu jarayon faqatgina tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish bilan cheklanib qolmay, balki yosh avlodning shaxs sifatida kamol topishi, axloqiy qadriyatlarni chuqur anglab, hayotiy mas'uliyatni his qiladigan insonlar bo'lib yetishishlariga ham katta hissa qo'shadi. Adabiyotlarni qaysi ilde o'qishidan qattiy nazar ular o'quvchilarni tanqidiy fikrlash, taqqoslash, shukur qilish kabi hislatlarga o'rgatib borishadi. Shu bois, ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan, badiiy adabiyotning ma'naviy tarbiya jarayonidagi o'rnnini chuqur tahlil qilish, uning usullarini ishlab chiqish va ta'sirchanlik omillarini aniqlash bugungi zamonaviy ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Chet tilidagi asarni o'quvchiga mutolaaga tavsiya berishdan oldin u adabiyotni yuqoridagi mezonlar bo'yicha tahlil qilishimiz lozim. Chunki bugungi yoshlarimizning nozik joyi shundaki ularning fikrini tez o'zgartirib yod g'oyalar og'ushida qolishlari, o'z mustaqil tendensiyasiga mustahkam ega emasligida.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda badiiy adabiyotning ahamiyati haqida so'z yuritilganda, avvalo, uning mazmuni va qahramonlarining ijtimoiy falsafiy qarashlari hamda jamiyatdagi mavjud axloqiy qadriyatlarga mosligi haqida atroflicha fikr yuritish lozim. Albatda chet tilida yozilgan adbiyotning ijtimoiy falsafi qarashlari, axloqiy qadriyatlari bugungi kun va bizning jamiyatimizga mos kelmasligi mumkin, shunday farqlarni o'quvchi tahlil qila olishi lozim. Bunda yosh o'quvchilar uchun asarlarni tanlashda avvalam bor ularning til bilish darajasini, ularning qiziqishlari, yosh xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish katta ahamiyatga ega. Chunki yaxshi tanlangan asar nafaqat o'quvchining chet tilidagi kompetensiyalarini, balki ma'naviy dunyosini boyitadi, unda jamiyatning yuksak axloqiy normalarini anglashga undovchi tushunchalar va his-tuyg'ularni shakllantiradi. Masalan, o'qilayotgan asar yoki undagi qahramonlarning ijtimoiy muhitga bo'lgan munosabati, ularning hayotdagi ideallari va qadriyatlari o'quvchi ongida ma'lum axloqiy mezonlarni paydo qilishiga xizmat qiladi. Zotan, badiiy asarlar yosh avlodni ezgulik va insoniylikka chorlovchi kuchli vositadir. O'quvchilar bilan asar yoki hikoyani tahlil qilayotganda undagi til o'rganish jihatlaridan tashqari qahramonlarni hatti harakati yuzasidan suhbat olib borilsa o'quvchi ongida asar qahramonlari uzoq saqlanib qoladi. Masalan: Ernest Hemingveyni "Chol va Dengiz" asar bosh qahramonini tahlil qilyotganda unga ingliz tilidagi sifatlar orqali ta'rif berilsa o'quvchi ongida sifatni anglatuvchi so'zlar va asar qahramoning qiyofasi uzoq saqlanib qoladi. Yana bir ingliz yozuvchisi Oskar Vaidning "The Happy Prince" asarini o'quvchilarga mutolaa qilishga tavsiya etamiz va mutolaa qilib bo'lgach o'quvchilar bilan asarda ishlatilgan leksika, grammatika, qisqartmalar va iboralardan tashqari o'quvchiga asar tomonidan berilayotgan tarbiyaviy jihatlarni o'quvchilar bilan muhokama qilib chiqilsa ularning tarbiyaviy salohiyatiga ham tasir o'tkazadi. Ushbu asarda o'quvchilarga ahloqiy, insoniylik, hamma ham jamiyatda birhil iqtisodiy mavqeyda emasligi, insonlarga yahshilik qilish aqidasi olg'a surilgan. Asarning eng bosh g'oyasi do'stlik va do'stga vafodorlik olg'a surilgan.

O'quvchilar tomonidan o'qib chiqilgan asarlarning adabiy tahlil qilinishi ham katta ahamiyatga ega. Chunki adabiy tahlil jarayonida o'quvchi nafaqat asarning

mazmuni va badiiy xususiyatlarini anglaydi, balki ulardan o‘z hayoti uchun zarur bo‘lgan xulosalarni chiqaradi. Masalan Oskar Vaildning “The Selfish Giant” hikoyasida bahillikning salbiy oqibatlari, tabiatning go‘zalligini boshqalar bilan bahim ko‘rish haqida tushunib yetishadi. Ushbu jarayon shaxsning axloqiy ongida mushohada va sintezlar orqali shakllanadi va uning ma’naviy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, adabiy tahlil malakasini shakllantirish orqali o‘quvchilarda turli sifatlarni shakllantirishning muhimligi masalasini biz ilmiy jihatdan M.Mirqosimova [7] tadqiqotlari orqali ko‘rshimiz mumkin.

Badiiy adabiyotning ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi ahamiyatini oshirish bilan bir qatorda o‘quvchining lingvistik kompetensiyalarini ham yahshilash uchun chet tilida chop etilgan adabiyotning tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berish va o‘quvchilarga tarbiyaviy va ahloqiy g‘oyalarni singdiruvchi asarlarni o‘qitish muhimdir. Chet tilida yozilgan adabiyot orqali o‘quvchilarga o‘sha xalqning ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini his qilishga yordam beradi.

Ingliz tilida o‘quvchi yoshlarga ijod qilgan quydagi adiblarning J.K. Rovling, Roald Dahl, K.S. Levis, **Mark Tvein, Oskar** Vaild_ va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlarida bu jihatlar namoyon bo‘lgan va o‘z ona tili ingliz tili bo‘lgan o‘quvchilar tomonodin qanchalik sevib o‘qilsa bizning yoshlar ham shunchalik qiziqib mutolaa qilishadi. Chunki bizni o‘quvchilar ularning asarlarini boshida faqat bir maqsad, yaniy til o‘rganish motivi bilan mutolaani boshlashadi, til ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida turli uslub va metodlar qo‘llanilganda ular asarning asl mohiyatiga yanada chuqurroq sho‘ng’ishadi. Jumladan, Abdulla Qodiriy “O’tgan kunlar” romanidagi turli qahramonlari orqali vatanparvarlik, sadoqat, muhabbat va do‘slik kabi fazilatlarni ochib bergen bo‘lsa, bunga ingliz tilida yozilgan "Gone with the Wind", Margaret Mitchel tomonidan yozilgan asarni ko‘rsata olamiz, ushbu asarda Amerika fuqarolar urushi davrida yuz bergen voqealar va muhabbatni tasvirlaydi. Bunda o‘zbek adabiyotini mutolaa qilgan o‘quvchi tomonidan olgan his tuyg‘ularini ingliz tilidagi asarni o‘qib olinadi. Xudoyerdi To‘xtaboyev “Sariq devni minib” asarida esa o‘quvchilarda sadoqat, do‘slik va odob-axloqning jamiyatdagi ahamiyatini tushuntiriladi. Shunda sarguzashtlarga boy va odob-axloq tushunchalarini ingliz tilida yozilgan asarni o‘qib ham olish mumkin bunga bir qator



asr va hikoyalarni misol keltirishimiz mumkin: "Alice's Adventures in Wonderland" – Lewis Carroll, "The Wonderful Wizard of Oz" – L. Frank Baum, «Charlie and the Chocolate Factory» – Roald Dahl, "Peter Pan" – J. M. Barrie. Xususan, chet el adabiyoti va milliy adabiyotning mos jihatlarni hamda uzlucksiz ta'lim tizimidagi o'rmini hamda bunday asarlarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini R.Niyozmetova [8.216-b] va boshqa ko'plab olimlarning tadqiqotlaridan ham bilishimiz mumkin.

Shu bilan birga, jahon adabiyotining umumbashariy qadriyatlarga asoslangan asarlarini muntazam ravishda mutolaa qilish, ularni milliy adabiyotimiz bilan uyg'unlikda tushuntirish orqali o'quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantirish lozim. Bu esa o'quvchilarni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarni qadrlaydigan va ularga amal qiladigan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalaydi. Jahon adabiyoti o'quvchilarga insoniyatning umumiy qadriyatlarini anglash imkoniyatini beradi. Masalan, Lev Tolstoyning "Anna Karenina", "Les Misérables"- Viktor Gugo, "To Kill a Mockingbird" Harper Lilarning romanlarida insoniy qadriyatlar, bag'rikenglik va halollik masalalari yoritilgan. Q. Husanboyeva adabiy ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashni shakllantirish usullariga oid tadqiqotlarida bu boradagi nazariy va amaliy yo'naliishlarni ko'rsatib bergan [5].

Ta'kidlash joizki, bunday maqsadlarga erishishda faqatgina maktab darslari va darsliklar bilan cheklanib qolmaslik, balki umumiyoq o'rta ta'lim tizimida chet tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish hamda sinfdan tashqari o'qish jarayonini ham samarali tashkil etish lozim. Jumladan, A.Umarovning tadqiqotlari o'quvchilarning mutolaa madaniyatini oshirish, kitobxonlikka jalb qilish bo'yicha qimmatli amaliy takliflarni beradi. Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishiga xizmat qiladi. A.Bolibekovning izlanishlari o'quvchilarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda sinfdan tashqari o'qishning o'rni va ahamiyatini ko'rsatgan. Bu jarayonda yoshlarning bugungi texnologiyalarga qiziqishini inobatga olib, badiiy adabiyotni zamonaviy vositalar orqali targ'ib qilish, turli lectron platformalar va ilovalardan foydalanish zarur. Raqamli texnologiyalar davrida lectron kitoblar, audiokitoblar, telemost muhokamalar va internet resurslari orqali badiiy adabiyotni targ'ib qilish



yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini oshiradi. Chet tilida o'qishga ularga eng katta motivatsiya bu ularni til muhitiga shung'ishidir. Masalan, audiokitoblar, interaktiv darslar, onlayn mutolaa klublari va boshqa texnologik imkoniyatlar yordamida o'quvchilarni badiiy adabiyotga yanada yaqinlashtirish va ularning qiziqishini oshirish mumkin. Bunda albatta ular erishgan natija va yutuqlarini o'zlariga his qildirish lozim.

XULOSA

Chet tillarni o'rganishga intilish va bu jarayonda natijalarga erishish bugungi yoshlarni yutuqlaridan biri va shu maqsadda badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish yosh avlodning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida bebaho vositadir. Uni integratsiyalashgan tarzda o'quv jarayoniga joriy qilish orqali yoshlarning o'z mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ular o'qiyotgan asarlarning hayotiy ahamiyatini chuqurroq anglashlariga erishiladi. Natijada, chet tilidagi badiiy adabiyot o'quvchilarning ma'naviy olamini boyituvchi, axloqiy tarbiyasini mustahkamlovchi va jamiyatga foydali shaxslarni yetishtiruvchi asosiy vositalardan biriga aylanadi. Milliy va chet tilida yozilgan adabiy asarlar ta'lif jarayonida uni yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Har bir yosh guruhi va til bilish darajasiga mos keladigan adabiy asar va hikoyalarni tavsiya etish tizimini rivojlantirish.
2. Milliy va jahon adabiyotini uzviy bog'lagan o'quv dasturlarini yaratish.
3. Sinfdan tashqari o'qish uchun alohida kitoblar ro'yxatini shakllantirish va uni texnologik platformalarda ommalashtirish.
4. Ingliz tili darslarida o'quvchilarning mushohada va munozara qilishlari uchun imkoniyatlar yaratish.
5. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mutolaa qilingan asarlarni mustahkamlovchi va rivojlantiruvchi bosqichlarini o'tkazish.
6. Til o'rganish barobarida o'quvchilarning o'rganilayotgan tilga bog'liq madaniyatlarni ham bilib borish va tahlil suhabatlarini o'tkazish.
7. Maktablarda darsdan tashqari paytda "Read and Discuss" nomli to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish.



Bu takliflarni amalga oshirish orqali o'quvchilarda chet tilini o'rganishga ishtiyoqini va badiiy adabiyotning ta'sirchanligini oshirib, yosh avlodni ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk insonlar sifatida tarbiyalashga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari tug'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi PQ-5117-sonli qarori.
2. "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'grisida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi 312-sonli qarori.
3. Dole J. A., Duffy G. G., Roehler L. R. and Pearson P. D. Moving from the Old to the New: Research on Reading Comprehension Instruction. // Review of Educational Research. – 1991, Vol. 61, No. 2, pp. 239–264.
4. E. Chambers, M. Gregory. Teaching and Learning English literature. Sage Publications. – London, 2006.
5. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakillantirish omili. –Toshkent: Alisher Navoi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
6. Jessica, Marinaccio. The Most Effective Pre-reading Strategies for Comprehension. School of Arts and Sciences. St. John Fisher College, 2012.
7. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakillantirish va takomillashtirish asoslari. – T: Fan, 2006. – 112 b.
8. Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 216 b.
9. Tompkins. Jane. ed. Reader-Response Criticism. From Formalism to Post- Structuralism. Baltimore: Johns Hopkins. 1980.